

**FINLANDIYA TAJRIBASI ASOSIDA O‘ZBEKISTON MAKTABGACHA TA’LIM
TIZIMINING SAMARADORLIGINING OSHIRISH USULLARI**

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
2-kurs magistri **Musulmonova Viloyat**

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Finlandiya maktabgacha ta’lim tizimi dunyoda eng samarali tizimlardan biri hisoblanishi, tizimning asosiy tamoyillari bolalarning tabiiy rivojlanishiga yordam berish, ularga ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish usullari haqida fikrlar mavjud.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim tizimi, Finlandiya, o‘yin, tarbiyachi.*

Finlandiyada ta’lim jarayoni bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etiladi, bunda o‘yin asosiy o‘rin tutadi. O‘yin orqali ta’lim berish bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshiradi, ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda ta’lim jarayoniga qiziqishini oshiradi.

Finlandiya maktabgacha ta’lim tizimida o‘qituvchilar yuqori malakaga ega bo‘lib, bu ta’lim sifati uchun muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilarning bilim va tajribasi ularning har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, Finlandiya tizimida yaxshilashga yordam beradi.

O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishda Finlandiya tajribasidan foydalanish samaradorlikni oshirish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bolalar uchun o‘yin asosida ta’lim berish usullarini joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirishga e’tibor qaratish, shuningdek, har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish muhimdir. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida qulay va stresssiz muhit yaratish orqali bolalarning ta’lim jarayoniga jalb etilishini kuchaytirish mumkin. Yuqoridagi usullar O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi va yosh avlodning intellektual, ijodiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Finlandiya maktabgacha ta’lim tizimi o‘zining innovatsion va yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Bu tajribani O‘zbekistonga moslashtirish orqali maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish mumkin. Quyida Finlandiya tajribasini qo‘llashning usullari misollar bilan kengroq bayon etiladi. O‘yin asosida ta’lim Finlandiyada bolalar bilim olish jarayonida o‘yin asosiy usul sifatida qo‘llaniladi. Masalan, bolalarga sonlarni o‘rgatishda ular turli o‘yinlar



orqali hisoblarga jalb qilinadi yoki tabiatdagi ob'ektlarni sanash taklif etiladi. Masalan, tabiat darolarida bolalar bog'ga olib chiqilib, daraxt yaproqlarini sanash yoki ularning shakli, rangini ajratish orqali matematika va atrof-muhit bilimlariga ega bo'lishlari mumkin. Harf o'rgatishda turli rangli kartochkalar yoki yumshoq kublar orqali o'yin tashkil qilish. Bolalar harfni tanib, so'z tuzishga harakat qilishadi.

Finlandiyada, har bir bola o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga ko'ra ta'lim oladi. Misol uchun, qo'shiq kuylashga qiziqqan bolalarga qo'shiq va musiqiy o'yinlar taklif qilinadi, rassomchilikka qiziqqan bolalar uchun esa bo'yash va rasm chizish mashg'ulotlari tashkil etiladi. O'zbekistonda agar bola konstruktorlar bilan o'ynashni yaxshi ko'rsa, unga muhandislik asoslarini tushuntiruvchi o'yinlar tashkil etish. Masalan, lego yoki qurilish bloklari yordamida miniatyura binolarni qurish. Musiqqa va raqsga qiziqqan bolalar uchun milliy raqslar yoki asboblarda ijro qilish mashg'ulotlarini tashkil qilish. Bu nafaqat bolani rivojlantiradi, balki milliy madaniyatni ham targ'ib qiladi.

Tarbiyachilarning malakasini oshirish, Finlandiyada maktabgacha ta'lim o'qituvchilari maxsus pedagogika bo'yicha oliy ma'lumotga ega va ular muntazam malaka oshirish kurslarida qatnashadilar. O'zbekistonda esa tarbiyachilarni xalqaro treninglar va seminarlarga jalb qilish, jumladan, Finlandiya o'qituvchilari ishtirokidagi mahorat darolarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Finlandiya bolalarga ortiqcha bosim qo'ymaslik uchun stresssiz va erkin muhit yaratiladi. Masalan, ular faqat muvaffaqiyatsiz javoblari uchun emas, har qanday sa'y-harakatlari uchun maqtov olishadi. O'zbekistonda qo'llash jarayonida esa har bir bolani kichik yutuqlari uchun maqtash, masalan: "Bugun sen qiziqarli rasm chizding!" yoki "Ajoyib javob berding!" Bu bolada o'ziga ishonchni oshiradi. Mashg'ulotlar vaqtida qulay muhit yaratish: o'rindiqlarni yumshoq va rang-barang qilish, sinf xonalarini bolalar ijodiy ishlari bilan bezash.

Xulosa qilib aytganda, Finlandiyada maktabgacha ta'limda interaktiv doskalar va bolalar uchun maxsus ilovalar qo'llaniladi. O'zbekistonda esa ta'lim uchun maxsus ilovalarni ishlab chiqish. Masalan, o'yin shaklidagi interaktiv dastur orqali bolalar ranglarni, shakllarni va so'zlarni o'rganishlari mumkin. Shuningdek, virtual ekskursiyalarni joriy etish bolalar uchun muzeylar, tabiat qo'riqxonalari yoki koinot haqida 3D tasvirlar yordamida bilim berish mumkin. Ushbu usullarni bosqichma-bosqich O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirish, bolalarning



qiziqishini kuchaytirish va ularning har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Timoti Uoker. Finlyandiya ta'lim mo'jizasi. Toshkent: Global Books, 2023. 272 bet.
2. Samandarova Adolat. O'zbekiston-Finlandiya pedagogik hamkorligi. Journal of Modern Scientific Research, 2023 yil.
3. Nazarova Sevara. Finlandiya maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xosliklari. International Journal of Education, 2024 yil.
4. Pasi Sahlberg. Finn Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? New York: Teachers College Press, 2015.
5. OECD. Education Policy Outlook: Finland. OECD Publishing, 2018.
6. Hancock, L. Why Are Finland's Schools Successful? Smithsonian Magazine, 2011.
7. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Early Childhood Education. Helsinki, 2016.
8. Timothy Walker. Teach Like Finland: 33 Simple Strategies for Joyful Classrooms. W. W. Norton & Company, 2017.
9. Walker, T. maktabgacha Teach Like Finland: 33 Simple Strategies for Joyful Classrooms maktabgacha.
10. Niemi, H., Toom, A., & Kallioniemi, A. maktabgacha Miracle of Education: The Principles and Practices of Teaching and Learning in Finnish Schools maktabgacha.
11. Hargreaves, A., & Shirley, D. maktabgacha The Fourth Way: The Inspiring Future for Educational Change maktabgacha.

